

O'QUV TARBIYA VA BOSHQARISH JARAYONI TAHLILI

Botirali Xasanov

Surxondaryo viloyati Sho`rchi tumani 68-sonli maktab internati

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`quv tarbiya va boshqarish jarayonining ish jarayonida nazorat-tekshiruv ishlari (yozma nazorat va mustaqil ishlari, testlash va hokazolar)ni olib borish, o`quv predmeti o`rganilishini boshqarish jarayoni, har bir dinamik tizim kabi, uning dinamikasiga o`z vaqtida va samarali yondashilgandagina barqaror rivojlanishi mumkinligi aniqlangan.

Kalit so`zlar: o`quv tarbiya, boshqarish, raqamlashtirish, nazorat, tekshiruv, tahlil.

Annotation: It has been determined that the work process of the educational education and management process can be developed only when conducting control and inspection work (written control and independent work, testing and actions), the process of managing the study of the educational subject, each dynamic system, its dynamics are approached in a timely and effective manner.

Key words: education, management, digitization, control, inspection, analysis.

Yangi informatsion texnoloiyalarni tadbiq etish maqsadida o`quv tarbiya va raqamlashtirish o`rtasidagi aloqani kengaytirish hamda chuqurlashtirish o`quv tarbiya tadqiqotlarida, ayniqsa raqamlashtirishda statistikaning turli metodlari, eksperiment ma'lumotlarini tahlil qilish va ularga ishlov berishda raqamlashtirish metodlarni qo'llash an'anasi keltirib chiqardi. Raqamlashtirish g'oyalaridan kelib chiqib, o'chamasdan qilib bo'lmaydigan o`quv tarbiya jarayonlari va hodisalarini shakllantirish imkoniyatlari to'g'risidagi masalalar muhokama qilinmoqda. Bu esa, tabiiyki, uslubiyat va nazariyaga oid maxsus masalalarni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi, hozirga kelib ko'pchilik pedagoglar raqamlashtirishni pedagogikada qo'llashi esa tadqiq qilinuvchi predmetga aylandi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, nazorat-tekshiruv ishlari (yozma nazorat va mustaqil ishlari, testlash va hokazolar)ni olib borish davriyiligi materialning murakkabligiga bog'liq bo'lib, statistik barqaror, yetarlicha aniq bo'lмаган kattalik hisoblanadi. Shu bilan birga, zaif shakllanganlar sirasiga o'рганилувчи material murakkabligi tushunchasi, nazorat-tekshiruv ishlarini o'tkazish samaradorligi, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi ham kiritiladi.

O'quvchilar faoliyati natijasida nazorat-tekshiruv ishlarini o'tkazish muddatlari va davriyilagini aniqlash borasida salmoqli tajriba shakllandi. Ayniqsa, har bir o'рганилган modul bo'yicha ikkita oraliq va o'quv shartli davrining oxirida bitta yakuniy (chorak oxiri) nazorat ishini o'tkazishni barqaror deb hisoblasa bo'ladi. Lekin joriy nazoratni rejalashtirish masalasi ochiq qolmoqda va o'qituvchilar uni mustaqil belgilashlariga to'g'ri kelmoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, yangi materialni o'злаштириш natijalarini, ya'ni: O'qituvchi - O'quv, predmeti - O'quvchi – Natija tizimining funksiyalash natijalarini keyingi o'quv jarayonini o'злаштириш va unga tuzatmalar kiritish natijalarini tezkor nazorat qilish imkoniyati bilan aloqadordir. Boshqacha, qilib aytganda, o'quv predmeti o'рганишими boshqarish jarayoni, har bir dinamik tizim kabi, uning dinamikasiga o'z vaqtida va samarali yondashilgandagina barqaror rivojlanishi mumkin.

Nazorat-tekshiruv ishlarining samaradorligi deya biz nazorat-tekshiruv ishlari o'quv vaqtini optimal va minimal sarf qilib o'quv natijalarini haqiqiy holatini o'z vaqtida aniqlash imkoniyati mavjudligida tushunamiz. Mazkur masalaning dolzarbligini o'рганилайотган materialni o'злаштириш uchun har darsda o'tilgan materialni so'rab borish bilan tushuntirish mumkin. Biroq endigina o'tilgan material murakkab bo'lmasachi, unda har darsda uni maydalab so'rash kerakmikan. Bundan tashqari, albatta, har bir nazorat-tekshiruv ishlari o'quv vaqtining ma'lum miqdori sarf qilinishini talab qiladi, bu vaqt esa, masalan, mazkur materialga oid bilimlar, ko'nikma va malakalarni chuqr shakllantirishga ketkazish ham mumkin. Boshqa tomondan esa, davriyiligi bo'yicha nazorat-tekshiruv ishlari ozligidan kelib chiqqan asoslanmagan tejamkorlik ta'lim natijasi, o'quv jarayoni ustidan nazoratni yo'qotish va uslubiy me'yorlar buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, tajribali o'qituvchilar o'zining pedagogik malakasiga asoslanib o'rganilayotgan material murkkabligiga qarab nazorat-tekshiruv ishlarini ratsional rejalarshirish asosida nazorat-tekshiruv ishlari samaradorligini yo'qotmaslik imkonlari mavjud. Ammo eng qizig'i shundaki, turlicha tayyorgarlik ko'rgan o'quv guruhlarida mazkur davriylik raqamlashtirish kursining biror bir bo'limini o'rganish vaqtida ham ishlataladi. O'tkazilgan pilotaj tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, malakali tajribaga ega pedagogik kadrlar nazorat-tekshiruv ishlari davriyilagini rejalarshirishda «Agarda o'quv guruhi tayyorgarlik darajasi o'rtachadan yuqori va o'rganilayotgan material murakkabligi yuqori bo'lsa, unda joriy nazoratlar samaradorligi yetarlicha kamroq davriyligi yuqori bo'ladi» kabi bir qancha zaif shakllangan pedagogik va uslubiy qonunchilikka tayanadilar. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning uzoq yillari mobaynida yuzaga kelgan qonunchilik mavjud bo'lib, u professional pedagogik tilning noma'lumliklari bilan boy bo'lsa-da, biroq pedagog uchun yetarlicha tushunarli va ravshandir. Pedagog-ekspertlar ko'pchilikni tashkil etishini hisobga olsak, qat'iymas lingvistik iboralar ma'nosini aniqlashda bunday qonunchiliklar nazorat-tekshiruv ishlarini rejalarshirish masalarini hodisaviy hal qilishning shakli sifatida ekspertlarning kasbiy bilimlari tuzilishiga imkon beradi, deb hisoblash o'rinli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" "O'zbekiston" nashriyoti 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [Farmoni. www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldaggi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi".
4. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. «O'zbekiston» NMIU, 2017. - 485 bet.